

**MEHNAT FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARNI AQLIY
TARBIYALASH**

**ПСИХИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ТРУДОВОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**MENTAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE PROCESS OF LABOR
ACTIVITY**

Norqo'ziyeva M.A

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Xo'rozboyeva Kumush Botir qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Ushbu maqolada mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash haqida so'z borgan.

Аннотация: Умственная деятельность требует постоянного внимания. Эта статья о психологическом обучении детей на рабочем месте.

Abstract: Mental activity requires constant attention. This article is about psychological education for children in the workplace.

Kalit so'zlar: Mehnat tarbiyasi , mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik, ta'lim – tarbiya, materialist, aqliy qobiliyat.

Ключевые слова: трудовое воспитание, самостоятельность, активность, дисциплина, ответственность, подотчетность, воспитание, материалист, интеллектуальные способности.

Key words: labor education, independence, activity, discipline, responsibility, accountability, education, materialist, intellectual abilities.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy sifatlaridan: mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik kabilarni shakllantirishdir. Kattalarning bolalarda aqliy qobiliyatlarni shakllantirishga e'tiborsizligi, to'g'ri baholay olmasligi, noto'g'ri munosabat bolada dangasalikni, o'zi bo'larchilikni, faqatgina o'zini o'ylash kabi salbiy hislatlarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yosh davrida bolada aqliy qobiliyatlarni qay tarzda shakllanishi

uning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga, hayotiy ko'nikmalarining shakllanishiga turtki beradi.

“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq”

(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” asari 25 bet)

Darhaqiqat Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek bugungi kunda farzandlarimizning ta'lim - tarbiyasi orqali Vatanimizning kelajagini ko'rib olishimiz mumkin. Tarbiya shakllari orasida bolani mehnat tarbiyasi ham juda muhim o'rin tutadi. Agarda farzandlarimizni yoshligidanoq mehnat qilishga mehnat ko'nikmalariga o'rgatib borilsa ulardan kelajakda jamiyatimizga Ona Vatanimizga sodiq farzanlar bo'lib tarbiyalanishlariga shakl shubha qolmaydi. Bolaning rivojlanishi o'sishi bu tabiiy hol bo'lganidek ularda aqliy rivojlanish bilan birgalikda jismoniy rivojlanish bosqichlari sodir bo'ladi. Bu rivojlanish bosqichlarida bolada mehnat qilish mehnat tarbiyasi ham bosqichma bosqich murakkablashib boradi shu sababdan mehnat tarbiyasi orqali bolada aqliylik xususiyatlarni rivojlantirib borishimiz kerak bo'ladi. Aql keng ma'noda sezish va idrok etishidan boshlab to tafakkur va hayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan, kattalarda mehnat faoliyati, bolalarda o'yin, o'quv faoliyati).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak –atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka va

ko'nikmlarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "politexnik ta'lim", "kasb ta'limi" singari tu-shunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda Mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir akdiyjismoniy mehnatdir.

Xulosa qilib aytganda, Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni

mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

2. Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.

3. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA O'YIN TURLARINING MAZMUNI

М Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

4. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILAVIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHGA OID QARASHLARI

М Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

5. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ ТА'ЛИМИГА AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI

М Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

6. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ ТА'ЛИМИГА AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI

М Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

Все версии статьи (27)

77. THE CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF THE FORMATION OF STABILITY IN THE TEACHING PROFESSION

М Norkuzieva - Mental Enlightenment Scientific-Methodological ..., 2021

8. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ДЕФОРМАЦИЯЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

МА Норкўзиева - Academic research in educational sciences, 2021